



**XIZMATLAR SOHASI
STATISTIKA BO'LIMI**


**2023- YIL
YANVAR-OKTABR**

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari ¹⁾

(2019-2023- yillar yanvar-oktabr)

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ- 5113 -son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

¹⁾ Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan


Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-oktabr)

Hududlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Qashqadaryo viloyati.	15 747,4	100,0	110,1
Shahar va tumanlar			
Qarshi shahar	4352,8	27,6	113,2
Shahrisabz shahar	796,2	5,1	112,5
G'uzor tumani	639,8	4,1	108,2
Dehqonobod tumani	498,8	3,2	109,5
Qamashi tumani	887,0	5,6	107,6
Qarshi tumani	1023,2	6,5	108,6
Koson tumani	1012,9	6,4	110,8
Kitob tumani	1103,1	7,0	108,9
Mirishkor tumani	686,8	4,4	109,0
Muborak tumani	936,2	5,9	108,0
Nishon tumani	646,7	4,1	108,5
Kasbi tumani	685,9	4,4	108,0
Ko'kdala tumani	282,7	1,8	110,1
Chiroqchi tumani	626,4	4,0	109,1
Shahrisabz tumani	793,8	5,0	108,0
Yakkabog' tumani	775,1	4,9	109,6

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

(2022-2023- yillar yanvar-oktabr)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4485,2** ming so'mga yetdi. **2022- yilning yanvar-oktabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,8 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar

(2023- yil yanvar-oktabr)

Hududlar	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati.	4485,2	107,8
Qarshi shahar	14942,6	110,8
Shahrisabz shahar	5468,7	110,8
G'uzor tumani	2918,7	105,7
Dehqonobod tumani	3167,1	107,2
Qamashi tumani	3067,1	105,2
Qarshi tumani	3818,1	106,0
Koson tumani	3295,0	108,1
Kitob tumani	3963,7	106,8
Mirishkor tumani	5373,7	106,7
Muborak tumani	10132,2	106,2
Nishon tumani	3938,3	106,0
Kasbi tumani	3264,6	105,7
Ko'kdala tumani	1526,3	106,3
Chiroqchi tumani	2377,4	106,5
Shahrisabz tumani	3414,2	106,3
Yakkabog' tumani	2780,1	107,4


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-oktabr)

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	15 747,4	100,0	110,1
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	775,3	4,9	121,4
Moliyaviy xizmatlar	2 861,2	18,2	119,1
Transport xizmatlari	3 266,3	20,7	105,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	3 124,3	19,8	104,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	487,2	3,1	109,1
Savdo xizmatlari	4 826,0	30,6	105,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	385,7	2,5	106,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	707,6	4,5	133,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	224,0	1,4	108,1
Ijara xizmatlari	333,3	2,1	99,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	530,2	3,4	105,0
Shaxsiy xizmatlar	554,3	3,5	108,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	201,2	1,3	107,7
Boshqa xizmatlar	595,1	3,8	115,7

Moliyaviy xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-oktabr)



2019- yil **yanvar-oktabr** oylariga nisbatan **2023-** yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **1870,8** mlrd. so'mga oshib, **2 861,2** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **18,2** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **119,1 %** ni tashkil etdi.


■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-oktabr)

2023- yilning **yanvar-oktabr** oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **90,4%** ni tashkil etdi.




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **44,9** foizni yoki **1284,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2022-** yilning **yanvar-oktabr** oylariga nisbatan Mirishkor tumanida yuqori o'sish sur'ati **138,1%** ni tashkil etdi.

Transport xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-oktabr)

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida transport xizmatlari hajmi **3 266,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, **2022- yilning** mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o‘shish sur‘ati **105,3 %** ni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **20,7 %** ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo‘yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog‘liq bo‘lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- noyabr holatiga ko‘ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog‘liq bo‘lib, faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **974** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **2,8 %** ini tashkil etdi. Ulardan **959** birlik (**98,5 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Transport xizmatlarining tarkibi

(2023- yil yanvar-oktabr)



	<i>mlrd. so'mda</i>	<i>% da</i>
Qashqadaryo vil.	3 266,3	105,3
Qarshi sh.	455,3	105,6
Shahrisabz sh.	170,8	104,9
G'uzor	158,2	108,2
Dehqonobod	108,8	112,6
Qamashi	209,7	104,3
Qarshi	321,3	103,1
Koson	263,9	102,3
Kitob	235,0	110,8
Mirishkor	260,5	104,4
Muborak	246,1	90,2
Nishon	170,1	101,8
Kasbi	141,6	103,7
Ko'kdala	60,7	108,6
Chiroqchi	135,7	119,4
Shahrisabz	159,6	109,4
Yakkabog'	168,9	121,0

2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan Qarshi shahrida transport xizmatlari hajmi **70,7** mlrd. so'mga oshib, hisobot davrida **455,3** mlrd. so'mni tashkil etgan. **2022- yilning yanvar-oktabr** oylariga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **105,6 %** ni tashkil etgan.

Muborak tumanida ushbu ko'rsatkich **2,8** mlrd. so'mga oshib. Bunda mazkur xizmatlarning o'sish sur'ati **90,2 %** ni tashkil etdi.


Savdo xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-oktabr)

2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida savdo xizmatlari hajmi **2414,3** mlrd. soʻmga oshib, **4826,0** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

2022-yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi boʻyicha oʻsish surʻati **105,6 %** ga yetdi.



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

— Hajmi, mlrd. soʻm — Oʻsish surʻati, % da

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, yaʼni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.




2023- yilning 1- noyabr holatiga koʻra xizmatlar sohasida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band boʻlganlarning ulushi **30,9 %** yoki **10601** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **99,7 foizi (10565 birlik)** kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-oktabr)




2023- yilning yanvar-oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **775,3** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **o'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **121,4 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra "Axborot va aloqa" faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **420** birlikka yetdi, shundan **414** birligi (umumiy sonining **98,6 %**) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2022- y. (2023- yil yanvar-oktabr, % da) 2023- y.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-oktabr)


Hududlar	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
Qashqadaryo vil.	775,3	100,0	121,4
Qarshi sh.	117,0	15,1	126,1
Shahrisabz sh.	42,0	5,4	122,3
Gʻuzor	43,6	5,6	115,4
Dehqonobod	32,8	4,2	120,9
Qamashi	54,7	7,1	117,7
Qarshi	54,4	7,0	120,9
Koson	59,4	7,7	118,0
Kitob	62,7	8,1	120,0
Mirishkor	29,8	3,8	123,5
Muborak	23,6	3,0	121,0
Nishon	35,3	4,6	128,6
Kasbi	39,8	5,1	123,1
Koʻkdala	29,7	3,8	120,9
Chiroqchi	53,0	6,8	114,9
Shahrisabz	42,7	5,5	127,3
Yakkabogʻ	54,8	7,1	122,5

2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan Qarshi shahrida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **25,1** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **117,0** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **15,1%** ni tashkil etdi.

Muborak tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **23,6** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2019-2023- yillar yanvar-oktabr)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **707,6** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **133,4 %** ni tashkil etdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Qarshi shahrining ulushi **66,4 %** ni tashkil etdi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.


Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Ta'lim sohasi xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-oktabr oylaridagi** ulushi **4,5 %** ni tashkil etdi. **Ma'lumot uchun:** 2022/2023- o'quv yili boshidagi oliy ta'lim muassasalari soni **9** birlikni tashkil etdi.



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-oktabr)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **224,0** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,4 %** ini tashkil etdi.

2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

■ Hajmi, mlrd. so'mda ● O'sish sur'ati, % da

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.


2023- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **815** birlikni tashkil etdi, shundan **679** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi (2023- yil yanvar-oktabr, mlrd. so'mda)

Qashqadaryo vil.	224,0	Kitob	26,4
Qarshi sh.	117,2	Mirishkor	4,7
Shahrisabz sh.	15,5	Muborak	14,1
G'uzor	1,9	Nishon	2,3
Dehqonobod	1,2	Kasbi	3,3
Qamashi	8,5	Ko'kdala	0,8
Qarshi	3,0	Chiroqchi	2,3
Koson	2,7	Shahrisabz	13,5
		Yakkabog'	6,7

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-oktabr)

2019- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **268,7** mlrd. so'mga oshib, **487,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **1662** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **1652** birligi (umumiy sonining **99,4** %) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-oktabr)



Yashash bo'yicha xizmatlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-oktabr)



2023- yil yanvar-oktabr oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **385,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **2,5 %** ni tashkil etdi. **2022- yilning yanvar-oktabr** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,1 %** ni tashkil etgan.

■ Hajmi, mlrd. so'mda ■ O'sish sur'ati, % da

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-oktabr, mlrd. so'mda)


Qarshi sh	93,9	Mirishkor	12,5
Shahrisabz sh.	21,4	Muborak	25,4
G'uzor	38,0	Nishon	52,5
Dehqonobod	20,5	Kasbi	6,0
Qamashi	16,6	Ko'kdala	4,0
Qarshi	22,5	Chiroqchi	9,3
Koson	18,1	Shahrisabz	14,9
Kitob	17,5	Yakkabog'	12,6

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-oktabr)

2023- yilning yanvar-oktabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **201,2** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **1,3 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,7 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi


(2023- yil yanvar-oktabr, mlrd. so'mda)

Qarshi sh	128,9	Kitob	8,8
Shahrisabz sh	19,2	Muborak	0,1
G'uzor	2,7	Nishon	1,6
Qamashi	9,5	Kasbi	1,0
Qarshi	7,9	Chiroqchi	3,5
Koson	10,6	Shahrisabz	5,2
		Yakkabog'	2,1

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar


(2019-2023-yillar yanvar-oktabr)



2023- yilning yanvar-oktabr oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 530,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,0 % ni tashkil etgan.



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-oktabr)




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Ijara xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-oktabr)

2019- yilning yanvar-oktabriga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi 133,3 mlrd. so'mga oshib, 333,3 mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi 2,1 % ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023- yil yanvar-oktabr** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **82,3 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

